

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDASI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Приименение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нематова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATIDA YUZAGA KELUVCHI RISKLAR

Jo‘rayev O‘ktam Panji o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining investitsion faoliyatida yuzaga keladigan asosiy risklar, ularning tasnifi, bank faoliyatiga ta’siri hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlari yoritilgan. Xususan, investitsiya faoliyatida vujudga keladigan risklarning banking moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, investitsiyalar, kredit, investitsiya portfeli, risk, investitsiya faoliyati, diversifikatsiyalash.

Abstract: This article examines the main risks arising in the investment activities of commercial banks, their classification, impact on banking operations, and modern approaches to risk management. In particular, the study analyzes how investment risks affect the financial stability and profitability of banks.

Keywords: commercial banks, investments, credit, investment portfolio, risk, investment activity, diversification.

Аннотация: В данной статье раскрыты основные риски, возникающие в инвестиционной деятельности коммерческих банков, их классификация, влияние на деятельность банков, а также современные подходы к управлению этими рисками. В частности, проанализировано воздействие инвестиционных рисков на финансовую устойчивость и рентабельность банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, инвестиции, кредит, инвестиционный портфель, риск, инвестиционная деятельность, диверсификация.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda tijorat banklarining investitsion faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda tijorat banklari mamlakat investitsiya muhitidagi eng muhim va ajralmas bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritmoqda. Tijorat banklarining asosiy strategik maqsadi — yuqori darajada rentabellikka erishish, ya’ni faoliyatdan maksimal daromad olish hisoblanadi.

Tijorat banklari o‘z faoliyatini, asosan, aholining va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning vaqtincha bo‘s sh turgan mablag‘larini jalb qilish hamda ularni moliyaviy resurslarga ehtiyoji mavjud bo‘lgan boshqa subyektlarga vaqtincha foydalanish uchun taqdim etish orqali amalga oshiradi. Bu jarayon tijorat banklarini investitsiya jarayonining faol ishtirokchisi va moliyaviy vositachisi sifatida namoyon etadi.

Tijorat banklari nafaqat milliy moliyaviy tizim doirasida o‘zaro, balki xorijiy banklar hamda boshqa moliyaviy vositachilar bilan ham raqobatlashmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklarining investitsion faoliyati bank siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur faoliyat, asosan, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar orqali amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O. Lavrushin tijorat banklari investitsion faoliyatida yuzaga keladigan risklarni bank operatsiyalarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, investitsiyaviy faoliyatda asosiy xavf turlari sirasiga kredit, likvidlik hamda bozor risklari kiradi [1]. Lavrushin bu risklarni butunlay yo‘qotish emas, balki ularni puxta tahlil qilish va samarali boshqarish orqali bank investitsiyalarining barqaror daromadliligini ta’minalash zarurligini ta’kidlaydi.

G. Beloglazova investitsiya portfeli tarkibidagi qimmatli qog‘ozlarning turlicha risk darajalariga ega ekanligini ta’kidlaydi [2]. Ayniqsa, uzoq muddatli davlat va korporativ obligatsiyalar orasida bozor narxi o‘zgarishiga bo‘lgan sezuvchanlik yuqoriligi ko‘rsatiladi.



S. Ermakov investitsiyaviy faoliyatda eng muhim risklardan biri sifatida valyuta riskini ko'rsatadi [3]. Xususan, banklar xorijiy valyutada chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritganida, valyuta kursidagi o'zgarishlar yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

E. Semenkovaning fikriga ko'ra, foiz stavkalari oshganida, avvalgi foizda sotib olingan qimmatli qog'ozlarning narxi keskin pasayadi. Bu esa bank portfelining umumiyligi qiyomatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [4]. Shuningdek, u chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni qaytarib olish riskiga ham e'tibor qaratadi va bu investorlar uchun kutilmagan yo'qotishlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

A. Balabanov investitsion risklarni tijorat banklari faoliyatidagi ichki xavf-xatarlar tizimining tarkibiy elementi sifatida baholaydi [5]. Uning fikricha, risklarni aniqlash va ularni minimallashtirishda zamonaviy baholash vositalari, jumladan, Value at Risk (VaR), stress-testlash va Monte-Karlo modellashtirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

V. Sklyarenko investitsion riskni bank menejmentining muhim boshqaruvi funksiyasi sifatida ko'radi [6]. U risklarni identifikatsiyalash, baholash va monitoring qilishni doimiy jarayon sifatida tashkil etishni taklif qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar haqida ma'lumotlar yig'ish uchun banklarning yillik hisobotlari, Markaziy bank statistikasi hamda soha mutaxassislar bilan suhbatlar asos qilib olindi. Olingan ma'lumotlar kontent tahlili, solishtirma va foizli taqsimot usullari yordamida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank faoliyati nuqtayi nazaridan investitsiya — bu korxona va davlat muassasalarining emissiya qilgan qimmatli qog'ozlariga uzoq muddatli kapital qo'yilmalarini anglatadi. Investitsiyalarni boshqarish jarayonidagi asosiy maqsad — belgilangan risk darajasida maksimal daromadga erishish yoki kutilayotgan daromad darajasida investitsion riskni minimallashtirishdan iborat.

Investitsion portfel daromadi quyidagi komponentlardan iborat:
foiz to'lovlar ko'rinishidagi tushumlar;
bank portfelida saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar qiymatining oshishidan olinadigan daromad;
investitsion xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan komissiya — ya'ni dilerlik operatsiyalaridagi sotib olish va sotish kurslari o'rtaqidagi farq (spred).

1-jadvalda tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan risklar, ularning tavsifi va bank faoliyatiga ta'siri yoritilgan (1-jadval).

1-jadval:Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar

Risk turi	Tavsifi	Bank faoliyatiga ta'siri
Kredit riski	Qimmatli qog'ozlar bo'yicha emitent tomonidan qarz va foiz to'lovlarining o'z vaqtida amalga oshirilmasligi.	Foya kamayishi, aktivlar sifati pasayishi, zaxira ajratish zaruriyati oshadi.
Bozor riski	Foiz stavkalari, valyuta kurslari yoki fond bozori kon'yunkturasi o'zgarishidan aktivlar qiymatining kamayishi.	Investitsion portfel qiymatining pasayishi, zararlar va likvidlik yetishmovchiligi.
Likvidlik riski	Investitsiyalangan aktivlarni qisqa muddatda qulay sharoitda naqd pulga aylantirishdagi qiyinchiliklar.	To'lovga layoqatlilikning kamayishi.
Portfel riski	Investitsion portfelning turli aktivlar kombinatsiyasidan kelib chiqadigan umumiyl risk.	Diversifikasiya darajasiga bog'liq risk kuchayadi; noto'g'ri tuzilgan portfel zarar keltiradi.
Dasturiy risk	Bank strategiyasida noto'g'ri investitsion qarorlar qabul qilinishi.	Investitsiya samaradorligining pasayishi, bank daromadliligiga salbiy ta'sir.
Raqobat riski	Moliyaviy bozor ishtirokchilari o'rtaqidagi kuchayib borayotgan raqobat ta'siri.	Bozor ulushining kamayishi, daromad manbalarining qisqarishi.
Biznes riski	Makroiqtisodiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz yoki mijozlar moliyaviy holatining yomonlashuvi.	Bank foydasi kamayadi.
Valyuta riski	Valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida investitsiyalar qiymatining pasayishi.	Transchegaraviy sarmoyalar bo'yicha zararlar, balans nomutanosibligi yuzaga keladi.



Tijorat banklarining investitsiya faoliyatida duch kelinadigan asosiy moliyaviy xatarlar orasida kredit riski yetakchi o'rinni egallaydi. Kredit riski — bu qimmatli qog'ozlar bo'yicha asosiy qarz va foiz to'lolarining belgilangan muddatda to'lanmaslik ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikdir. Turli turdag'i qimmatli qog'ozlar va ularning alohida emissiyalari bo'yicha kredit risk darajasi reyting agentliklari tomonidan baholanadi. Bunday reytinglar emissiyalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilish ehtimolini aks ettiradi. Amaliyotda tijorat banklari, odatda, faqat investitsion reytingga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishga moyil bo'lib, ayniqsa davlat va munitsipal qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish kredit riski darajasining nihoyatda pastligi bilan ajralib turadi.

Qimmatli qog'ozlar kursining o'zgarish xavfi qimmatli qog'ozlar narxi bilan foiz stavkalari o'rtasidagi teskari bog'liqlik natijasida yuzaga keladi. Xususan, foiz stavkalarning oshishi ilgari chiqarilgan qat'iy foizli qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatini kamaytiradi. Bu holat banklarning investitsion portfellarini boshqarishda likvidlik zarurati bilan bog'liq murakkab vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar foiz stavkalardagi o'zgarishlarga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega bo'ladi, bu esa ularning qiymatining keskin pasayishiga olib keladi.

Banklar past foiz stavkalari davrida yuqori kursda sotib olingen qimmatli qog'ozlarni foiz stavkalari oshgan davrda sotishga majbur bo'lsalar, ular balanslarida salbiy kurs farqlari shakllanadi. Bu esa bankning sof foydasining kamayishiga hamda kapital yo'qotishlariga olib keladi. Mazkur yo'qotishlar, odatda, yuqori daromadli kreditlar hisobiga qoplashga harakat qilinadi.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarning bozor qiymati va ulardan olinadigan daromad o'rtasida teskari proportional bog'liqlik mavjud: narxlar past bo'lsa, daromad yuqori bo'ladi va aksincha. Natijada, past foiz stavkalari davrida sotib olingen qimmatli qog'ozlarning keyingi bosqichlarda narxi pasayishi investitsiya portfeli qiymatining kamayishiga olib keladi. Aksincha, foiz stavkalari tushgan taqdirda qimmatli qog'ozlarning bozor bahosi ortadi.

Likvidlik nomutanosibligi riski esa qimmatli qog'ozlarni tez va sezilarli yo'qotishlarsiz pulga aylantira olmaslik ehtimoli bilan bog'liqidir. Tijorat banklari bunday risklarni minimallashtirish uchun ichki (tezkor realizatsiya qilinadigan aktivlar) va tashqi (moliya bozoridan jalb etiladigan resurslar) manbalardan foydalanadi. Likvid qimmatli qog'ozlar deb bozori faol, narxi nisbatan barqaror va investitsiyalangan kapitalning qaytish ehtimoli yuqori bo'lgan vositalar tushuniladi. Bunga misol sifatida qisqa muddatli davlat obligatsiyalarini keltirish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning muddatidan oldin chaqirib olinishi riski ham muhim tavakkal omil hisoblanadi. Aksariyat korporatsiyalar va ayrim davlat muassasalari o'z emissiyalarida chaqirib olish (buy-back) huquqini saqlab qoladi. Bu huquq faqat belgilangan minimal muddatdan keyin va bozor narxi dastlabki narxdan past bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi. Mazkur holat investorga kutilmagan likvidlik muammolarini va daromad yo'qotishlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Biznes riski banklar faoliyatida yuzaga keluvchi muhim tizimli xatarlar qatoriga kiradi. Ushbu risk bozor iqtisodiyotida sodir bo'ladigan salbiy hodisalar — mahsulot va xizmatlar sotuvining qisqarishi, bankrotlik holatlari hamda ishsizlik darajasining oshishi bilan bevosita bog'liqidir. Bunday holatlар banklarning kredit portfellariga tezkor ta'sir ko'rsatadi, chunki mijozlar moliyaviy muammolarga duch kelgan sayin, qaytarilmagan kreditlar hajmi ortib boradi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, biznes riski ko'pincha tashqi makroiqtisodiy omillar ta'sirida yuzaga keladi va banklar tomonidan nazorat qilish qiyin bo'lgan xavf hisoblanadi.

Mazkur riskning oldini olish yoki uni yumshatish maqsadida ko'plab tijorat banklari qimmatli qog'ozlar portfeli diversifikatsiyasiga tayanadilar. Ya'ni, ular faqat o'z xizmat hududlarida emas, balki boshqa mintaqalarda joylashgan emitentlar tomonidan chiqarilgan ishonchli va yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritadilar. Bu yondashuv bankka kredit bozorida yuzaga kelgan xavflarni investitsion daromadlar evaziga muvozanatlash imkonini beradi.

Shunday qilib, biznes riski banklar uchun nazorat qilinmaydigan, lekin salbiy oqibatlarga olib keluvchi xavflardan biri bo'lib, u kredit portfeli sifati va daromadliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun qimmatli qog'ozlar portfelining hududiy va tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiyasi strategik muhim vosita sifatida qaraladi.

Bozor riski esa iqtisodiy kon'yunktura yoki moliya bozoridagi kutilmagan o'zgarishlar natijasida ayrim qimmatli qog'ozlarning investitsiyaviy jozibadorligi pasayishi ehtimoli bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda mazkur aktivlarni faqat jiddiy narx chegirmalari bilan realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. 2-jadvalda yuqorida sanab o'tilgan risklarning bank faoliyatiga ta'sir darajasini baholaymiz (2-jadval).



2-jadval: Tijorat banklari investitsion faoliyatida uchraydigan asosiy risklar va ularning bank faoliyatiga ta'sir darajasi (foizda)

Risk turi	Bank faoliyatiga ta'sir darajasi (%)
Kredit riski	25%
Bozor riski	20%
Likvidlik riski	15%
Portfel riski	10%
Dasturiy risk	10%
Valyuta riski	8%
Biznes riski	7%
Raqobat riski	5%

Ushbu jadvalda tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan investitsion faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan asosiy moliyaviy risk turlari, ularning qisqacha tavsifi va bank faoliyatiga ko'rsatadigan taxminiy ta'sir darajasi foiz ko'rinishida keltirilgan. Fikrimizcha, kredit riski eng yuqori ta'sirga ega bo'lib, u banklar uchun asosiy yo'qotish manbai hisoblanadi. Bozor riski esa qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi yoki foiz stavkalariagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan noaniqliklarni ifodalaydi. Likvidlik riski bankning o'z vaqtida majburiyatlarini bajara olmaslik xavfini bildiradi. Qolgan risklar esa bilvosita, ammo barqarorlik uchun muhim ta'sir ko'rsatadi.

Foizlar nisbiy baholashga asoslangan bo'lib, real bank amaliyotida ular mamlakat iqtisodiy holati, bank strategiyasi, bozor sharoitlari va investitsiya portfelining tuzilishiga qarab o'zgarishi mumkin. Jadval banklar uchun risklarni ustuvorlik darajasiga qarab tahlil qilish va ularni boshqarish strategiyasini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarining investitsion faoliyati moliyaviy barqarorlik va daromadlilikni ta'minlashda muhim o'rinni egallaydi. Ushbu faoliyat doirasida yuzaga keladigan risklar kredit, bozor, likvidlik, portfel, dasturiy va boshqa xatarlar bankning moliyaviy holati, likvidlik darajasi hamda umumiy investitsion strategiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, investitsion risklarni chuqur tahlil qilish va ularga qarshi samarali boshqaruvin mexanizmlarini joriy etish bank faoliyatida ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Tijorat banklari zamonaviy risklarni Value at Risk (VaR), stress-testlar va Monte-Karlo kabi vositalardan foydalanish orqali investitsion xavflarni kamaytirish bilan birga, daromad olish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Ayniqsa, riskni diversifikatsiya qilish, yuqori likvidli va ishonchli emitentlarning qimmatli qog'ozlariga ustuvorlik berish orqali xavf darajasi pasaytiriladi.

Shu sababli, banklar uchun investitsion risklarni boshqarish strategiyasini takomillashtirish, ichki risk-monitoring tizimlarini kuchaytirish va yuqori xavfli investitsiyalardan saqlanish orqali barqaror va uzoq muddatli daromadlilikka erishish muhim hisoblanadi. Risklarni nafaqat kamaytirish, balki ular bilan ongли ravishda ishslash banklarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Банковские риски: учебное пособие. / О.И. Лаврушин, Н.И Валенцева. – М.: КНОРУС, 2007 – 232 с. – ISBN5-85971-602-8.
- Банковское дело: Учебник для вузов. / Г. Белоглазова [и др.] -2- е изд. - СПб.: Питер, 2018. – 400 с. – ISBN 978-5-91180-733-7.
- Ермаков С.Л. Основы организации деятельности коммерческого банка: учебник / С.Л. Ермаков, Ю.Н. Юденков. – М.: КНОРУС, 2018. – 656 с. – ISBN978-5-390-00459-3.
- Семенкова Е.В. Операции с ценными бумагами: учебник / Е.В. Семенкова. – М.: Издательство «Дело» АНХ, 2017. – 488 с. – ISBN 978-5- 7749-0536-2.
- Банки и банковское дело: Учебник для вузов. /А.И. Балабанов [и др.] – 2-е изд. - СПб.: Питер, 2017. – 448 с. – ISBN 978-5-91180-138-0.
- Скляренко В.В. Банковский менеджмент: Учебное пособие/ В.В. Скляренко. – СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2019.- 108 с.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100